

MAMLAKAT AHOLISI O'SISH SUR'ATI PASAYIB KETISHINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Urunbayeva Yulduz Pirnazarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis

instituti (PhD) i.f.d, dotsenti

Beknazarov Sherbek

Samarqand iqtisodiyot va servis

instituti XIM-S 124-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining kamayib ketishing iqtisodiyotga ta'siri, dunyo bo'yicha ko'plab mamlakatlarda aholining kamayib borayotganligi, jumladan mamlakatimiz aholisining o'sish sur'atining pasayish tendensiyasini ko'rsatayotganligi, bunga sabab bo'layotgan omillar haqida fikr yuritiladi.

Abstract: This article discusses the impact of population decline on the economy, the fact that populations are declining in many countries around the world, including our country, which is showing a downward trend in population growth, and the factors causing this.

Kalit so'zlar: aholi; demografiya; mehnat resurslari; depopulyatsiya; iqtisodiy o'sish; aholi kamayib borishi, ishechi kuchi taqchilligi; jahon reytinglari;

Keywords: population; demography; labor resources; depopulation; economic growth; population decline, labor shortage; world rankings;

Dunyo tobora globallashib, zamon tahlikali bo'lib bormoqda. Shunday ekan, bunday davrda mamlakat jahon miqyosida munosib o'rin o'rin egallashi va bu yo'lda da'dil qadam tashlamog'i lozim. Albatta, har qanday davlat jahon reytinglarida munosib o'rirlarni egallashi uchun iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi kerak. Iqtisodiyot rivojlanishi uchun esa iqtisodiy qonunlar tóg'ri yo'lga qo'yilishi, davlat ichki va tashqi siyosati samarali olib borilishi va aynan shu mamlakat yetarlicha mehnat resurslariga ega bo'lishi kerak. Yetarlicha mehnat resursiga ega bo'lish uchun esa aholining o'sish sur'ati doim yuqori bo'lishi kerak[1].

Bugungi kunda jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarning asosiy muammolaridan biri aholining o'sish sur'ati pasayib ketishi va natijada mehnat resursining yetishmovchigi yuzaga kelmoqda. Jumladan, dunyoning ko'plab mamlakatlarida aholi soni kamayishda davom etmoqda. Bu esa jahon iqtisodiyoti uchun yana bir yirik muammo aylanib bormoqda. Xususan, aholi soni bo'yicha ko'p yillardan beri yuqori o'rinni egallab kelgan Xitoyda ham o'tgan bir necha yillardan beri tug'ilish ko'rsatkichi kamayib bormoqda. Natijada esa, bir paytlar har ikkinchiga bola tug'ilishiga taqiq va jarimalar qo'ygan davlat bugungi kunda imtiyoz va mukofotlar

tayinlab tug'ilishni ko'paytirmoqchi. Jahon miqyosida aholining kamayib borishi ilmiy adabiyotlarda depopulyatsya deb yuritiladi. Dunyo aholisining o'sish sur'ating pasayib borishi yil sayin jadallahib bormoqda. Jahon miqyosida aholi demografiyasi ustida har yili statistik tadqiqotlar olib boriladi. Har qanday mamlakat taraqqiyotining asosi bo'lgan ishlab chiqarishning ajralmas 4 omilidan biri hisoblangan mehnat resurslarining yetarli bo'lishi juda muhimdir.



Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida sun'iy idrokka ega aqlli texnika va texnologiyalarning keng ko'lamda qo'llanilishiga qaramasdan malakali mehnat resurslariga bo'lgan talab har doimgidan ham yuqori bo'lib bormoqda. Iqtisodchilarning ta'kidlashicha u yoki bu mamlakat aholisining kamayishi yoki o'sish sur'atining pasayishi asosan rivojlangan, aholisi to'q va farovon yashaydigan mamlakatlarda kuzatiladi. Jumladan, Yevropa mamlakatlarining deyarli hammasida aholining kamayishi kuzatilmoqda. Yuqoridagi fikrimizga dalil sifatida aytishimiz mumkinki, Yevropa mamlakatlarining deyarli hammasi rivojlangan, iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha jahon reytinglarida yuqori o'rnlarni egallab kelmoqda. Bu mamlakatlar mehnat resurslariga bo'lgan bo'lgan talabni tashqi mamlakatlardan asosan Osiyo va Afrika qit'asining rivojlanayotgan mamlakatlaridan import qilish orqali qoplamoqda[2].

O'zbekiston ham hozirda rivojlanayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. O'zbekiston aholisi 2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra 37.7 mln kishini tashkil etgan. Mamlakatimiz aholisi o'tgan yilning mos shu davri bilan qiyoslaganda 2 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich ham ya'niy yillik o'sish sur'ati ham o'tgan bir necha yillardan beri 2 foizdan oshmayapti. 2025-yilning birinchi choragi statistikasiga binoan aholi kuniga 1.7 ming kishiga ko'paymoqda. Bu o'rinda yana bir statistik ma'mulotga e'tibor qaratish lozim. Mamlakatimiz aholisi 2023-yilning birinchi choragida 172.8 ming kishiga, 2024-yilning birinchi choragida 163.5 ming kishiga 2025-yilning birinchi

choragida esa 154.6 ming kishiga ko'paygan. Ko'rishimiz mumkinki, aholi o'sish sur'ati o'tgan 3 yildan pasayish tendensiyasini namoyon qilmoqda[3].

Xo'sh, bunday holatni ro'y berishiga qanday omillar ta'sir qilmoqda? Aholi o'sish sur'atining pasayishi sodir bo'lishiga jahon tajribasida bo'lганidek mamlakat rivojlangan mamlakatlar qatoriga yaqinlashib qolganidan darak beradimi yoki boshqa omillar ta'sirida bu holat ro'y bermoqdam? Jahon miqyosida aholining o'sish sur'atining sekinlashuvi dunyo tajribasida shu kungacha faqatgina rivojlangan mamlakatlarda qayd etilgan deb ta'kidlab o'tdik.(urush bo'layotgan va pandemik kasalliklar tarqalgan mamlakatlardan tashqari). Keling, birinchi taxminiy omil bo'yicha biroz statistik ma'lumotlarni keltirib o'tamiz ya'niy O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishiga asos bo'luvchi rengtinglarni keltirib o'tamiz. YAIM hajmi 2024-yil yakunlariga ko'ra 114.9 mlrd dollarni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga hisoblab chiqilganda har bir kishiga 3093 dollarni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ya'niy aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha 2024-yil dunyo bo'yicha 67-o'rinni, xalqaro xarid qobiliyati bo'yicha 57-o'rinni, inson taraqqiyoti indeksida 119-o'rinni, shaffoflik indeksi bo'yicha 180ta mamlakat ichida 174-o'rinni, global tinchlik indeksi bo'yicha 144 mamlakat orasida 106-o'rinni egallab turibdi. 2024-yil yakunlari bo'yicha mamlakatimiz iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha tez sur'atlarda o'sib borayotgan mamlakat sifatida ta'nilgan[4] Yillik o'sish 5.6-65.5 foiz oralig'ida bo'lgan.

Iqtisodiyotimiz tez sur'atlarda o'sib borayotganiga qaramay jahon rengtinglarida hali hamon qoniqarli o'rirlarni egallab kelmoqdamiz. Birinchi omil aholi o'sishi sekinlashuviga ta'sir qilmayotganini dalillar asosida ko'rib chiqdek. Endi boshqa omillar haqida to'xtalib o'tamiz. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki aholi kamayishiga quyidagi omillar ta'sir qilmoqda: tug'ilish darajasining pasayib borayotgani(bunga sabab jamiyatimizda ayollarning roli va ijtimoiy mavqeい oshib borayotgani); nikohlar sonining kamayib borayotgani; ajrimlar soni yil sayin oshib borayotgani; o'limlarning ko'payib borayotgani; demografik tarkibdagi o'zgarishlarni keltirishimiz mumkin. Doimiy yashovchi aholining chet elga migratsiya qilishining(umrbod yashash uchun) yil sayin oshib borishi ham mehnat resurslarining kamayib borishiga o'z hissasini qo'shamoqda. Aholining kamayishi-bu ko'plab mamlakatlarda kuzatiladigan demografik tendensiya bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va madaniy sohalarga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Quyida bu jarayonning sabablari, oqibatlari va yechim yo'llari tahlil qilib o'tamiz:

1. Aholi kamayishining global sabablari

- Tug'ilish darajasining pasayishi: 1950-yilda global tug'ilish ko'rsatkichi har bir ayolga 4.7 bola bo'lsa, 2023-yilda 2.2 ga tushgan. 2100-yilga kelib bu ko'rsatkich 1.7 ga yetishi kutilmoqda .

- Demografik o‘tish modeli: Iqtisodiy rivojlanish ayollarning ta’lim va ish bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa tug‘ilishni kechiktirishga olib keladi. Masalan, Xitoyda bir bolalik siyosati bekor qilinganiga qaramay, ayollar ijtimoy erkinlikni saqlab qolmoqda.

- Urbanizatsiya va hayot xarajatlarining oshishi: Shaharlarda bolalarni parvarish qilish xarajatlari yuqori, bu esa oilalarni kichikroq qurishga undaydi.

2. Aholi kamayishining iqtisodiy oqibatlari:

- Ishchi kuchi qisqarishi: Mehnatga layoqatli yoshdagilar sonining kamayishi ishlab chiqarish va soliq tushumlarini pasaytiradi. Masalan, Yaponiyada 2050-yilga kelib har bir nafaqaxo‘rga atigi 1.4 ishchi to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich 1990-yilda 5.8 edi.

- Pensiya tizimining bosimi: Xitoyda asosiy davlat pensiya jamg‘armasi 2035-yilga kelib tugashi mumkin.

- Innovatsiyaning susayishi: Yosh ishchilar va tadbirkorlar soni kamayishi texnologik taraqqiyotni sekinlashtirishi mumkin.

Aholi kamayib borishining ba’zi ijobiy tomonlari ham bor. Ularga jumladan quyidagilarni keltirish mumkin:

- Mehnat unumdorligining oshishi: Aholi kamaygan 19 mamlakatda shu jumladan Yaponiya, Germaniya ishsizlik pasaygan, mehnatga ishtirot darajasi va jon boshiga YaIM oshgan. Misol uchun, Yaponiya aholisi 2012–2022-yillarda 2% ga kamaygan bo‘lsa-da, jon boshiga YaIM 7.5% ga oshdi.

- Ish haqining ko‘tarilishi: Mehnat tanqisligi ishchilarning muzokara kuchini oshiradi, bu esa daromadlarning oshishiga yordam beradi.

- Ekologik foyda: Aholi kamayishi resurslar iste’moli va uglerod izini kamaytiradi. Masalan, odamlar sonining ikki baravar oshishi 50 yil ichida yovvoyi tabiat populyatsiyasini 69% ga qisqartirdi.

3. Ijtimoiy va siyosiy oqibatlar:

- Qarish jamiyat: 2050-yilga kelib rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi ulushi 59% ga tushishi kutilmoqda. Hozirda bu ko‘rsatkich 69% ni tashkil qiladi. Bu sog‘liqni saqlash va parvarish xizmatlariga talabni oshiradi.

- Migratsiya siyosatining o‘zgarishi: Aholi kamayayotgan mamlakatlar masalan, Germaniya, Kanada da malakali immigrantlarni jalb qilish uchun chegaralarni ochishga majbur.

- Gender tengligi: Tug‘ilishning pasayishi ayollar ta’limi va ish faoliyatining oshishi bilan bog‘liq. Skandinaviya mamlakatlarida ota-onalar uchun keng imtiyozlar tug‘ilish darajasini barqarorlashtirdi.

4. Ekologik ta’siri quyidagilardan iborat:

- Atrof-muhit bosimining pasayishi: Global aholining 2064-yilda cho‘qqiga (9.7 milliard) chiqib, keyin pasayishi (2100-yilda 8.8 milliard) resurslar iste’moli va ekotizimlarni tiklash imkoniyatini beradi.

- Biodiversitetni himoya qilish: Odam faoliyati yer yuzining 70% dan ortig‘ini o‘zgartirdi. Aholining kamayishi yo‘qolib borayotgan turlarni himoya qilishga yordam beradi.

5. O‘zbekiston kontekstida demografik muammolar:

- Hozirgi holat: O‘zbekistonda aholi hali ham o‘smoqda, lekin tug‘ilish darajasi 2024-yilda 3.2% ga pasaygan. Bunga sabab shaharlarda ayollar ta’lim darajasining oshishi va ko‘p bolalilik modelining o‘zgarishi.

- Iqtisodiy bosim: Har yili mehnat bozoriga 500 ming yangi ishchi kiradi. Agar ish o‘rinlari yaratilmasa, ishsizlik va migratsiya kuchayishi mumkin.

- Strategik tavsiyalar:

- Inson kapitaliga sarmoya: ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash orqali mehnat unumdorligini oshirish;

- Demografik dividenddan foydalanish: Yosh aholi ulushi (30.1%) ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish uchun imkoniyatdir;

6. Davlatlar uchun strategiyalar:

- Mehnat bozorini moslashtirish: Pensiya yoshini ko‘tarish, telejobbingni rivojlantirish, keksalarga qulay infratuzilma yaratish.

- Tug‘ilishni rag‘batlantirish: Bolali oilalarga moliyaviy yordam;

- Barqaror iqtisodiyotga o‘tish: "Teksisiz o‘sish" (degrowth) modeli — resurs iste’moli o‘rniga hayot sifatini ko‘tarishga e’tibor.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, aholi kamayishi — nafaqat qiyinchilik, balki jamiyatni modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni kuchaytirish va inson farovonligini markazga qo‘yish uchun imkoniyatdir. Aholi kamayib borayotgan bir davrda ham biz quyidagilarni amalga oshirgan holda faravon jamiyat qurishimiz mumkin:

1. Iqtisodiy strategiyani qayta ko‘rib chiqish: YaIM o‘sishi emas, balki aholi jon boshiga daromadni oshirishni maqsad qilish;

2. Gender tengligi va reproduktiv salomatlikni rag‘batlantirish: Ayollarning o‘qishi va ishlashi tug‘ilishni kamaytirsa ham, uzoq muddatda farovonlikni oshiradi;

3. Migratsiyani boshqarish: Demografik nomuvozanatni yumshatish uchun malakali mehnat muhojirlarini jalb qilish.

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun aholi dinamikasini "xavf" emas, balki inson kapitali sifatida qayta talqin qilish asosiy vazifadir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aholi kamayishi bilan bog‘liq muammolar innovatsiyalar, ijtimoiy islohotlar va atrof-muhitni tiklash orqali bartaraf etilishi mumkin. To’g’ri hozirgi davrda mamlakatimizda mavjud bo’lgan mehnat resurslari ichki ehtiyojni to’liq

qondiribgina qolmay, tashqi mehnat bozorlarini ham bir nechtasini malakali va arzon mehnat resurslari bilan ta'minlab kelmoqda. Ammo mamlakatimizda yuz berayotgan depopulyatsiya jarayoni agar shu tarzda o'sib borishda davom etsa kelajakda bu holat davlatimiz, milliy iqtisodiyotimiz uchun jiddiy muammoga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyothar ro'yxati:

1. Saidov A.A., Tursunov B.O. (2021). Ijtimoiy demografiya. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Karimov E., Mamadaliyev S. (2020). Demografiya asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti. Tug'ilish, o'lim, migratsiya va demografik o'zgarishlarning iqtisodiyotga ta'siri.
3. Nazarov A. (2023). “Aholi sonining kamayishi va mehnat bozoriga ta'siri”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali.
4. Ergashev S. (2022). “Demografik o'zgarishlarning investitsiya muhitiga ta'siri”. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.
5. Xudoyqulov J. (2021). “Aholi migratsiyasi va iqtisodiyotga ta'siri”. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent moliya instituti.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi – <https://stat.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi – <https://mineconomy.uz>
8. Zyonet.uz – <http://ziyonet.uz>
9. Cyberleninka.ru – o'zbek olimlarining maqolalari.